

INTERFAOL METODLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mo‘minova Moxidilxon Axmadjon qizi

KIUT PRI-1U magistri

***Annotatsiya.** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga interfaol metodlar orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish faoliyati yoritib berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish muhokama qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** ijodiy qobiliyat, interfaol, ta’lim, interfaol ta’lim shakllari, interfaol ta’limning turlari, interfaollik ijodiy faoliyat sifatlari, ta’lim samaradorligi, darsni loyihalash.*

***Аннотация.** В статье освещена деятельность по развитию творческих способностей младших школьников с помощью интерактивных методов. Обсуждалось использование интерактивных методов и игр в развитии творческой деятельности младших школьников.*

***Ключевые слова:** творческие способности, интерактивные, образовательные, интерактивные формы обучения, виды интерактивного обучения, интерактивность качества творческой деятельности, образовательная эффективность, конструирование урока.*

***Annotation.** The article highlights the activities of Primary School students to develop their creative abilities through interactive techniques. The use of interactive techniques and games in the development of creative activity of Primary School students was discussed.*

***Key words:** creative abilities, interactive, educational, interactive forms of learning, types of interactive learning, interactive qualities of creative activity, educational efficiency, lesson design.*

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi birinchi o‘rindagi muhim masalalar qatorida bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy ta’lim olishning o‘zi har bir shaxs zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Zeroki, ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g‘oyali, milliy g‘ururli, chuqur ma’lumotli, ma’naviy va jismoniy

yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko'zda tutadi va o'z harakatlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi(1). Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o ta'lim samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- o ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- o ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- o ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- o ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- o amalda bajarish orqali o'rganilishi;

- o ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

«Zigzag» metodi: Sinf o'quvchilari 4-7 guruhga bo'linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. SHu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi(1).

Muzyorar metodi: Muzyorar – muomaladagi to'siqlarni yengib o'tishga va o'zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o'zini bemalol his qilishlariga yordam beradi(4).

Aqliy xujum metodi: «Aqliy hujum» biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. Uto'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

FSMU texnologiyasi:

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring

(U) – Fikringizni umumlashtiring

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

“Zinama-zina” texnologiyasi: o'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo'lgani ma'qul); o'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi; o'qituvchi guruh a'zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi; guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi. Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;

O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ha-yo'q mashqi :O'qituvchi bir nima (raqam, predmet, adabiy yoki tarixiy qahramon va sh. o'.) ni o'ylab qo'yadi. O'quvchilar esa unga savol berib, u nimani o'ylab qo'yganligini topishga harakat qiladilar. O'qituvchi ularning savollariga faqat “Ha”, “Yo'q”, “Ham ha, ham yo'q” so'zlari bilan javob beradi. Savol nojo'ya berilgan yoki o'qituvchi didaktika maqsadlaridan kelib chiqib, savolga javob berishni xohlamaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. SHunda u oldindan belgilangan ishora bilan javob berishdan voz kechadi. Mashq yakunlanganidan so'ng albatta qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqa muhokama o'tkazish shart.

Mashqning maqsadi – bolalarni savollarni tartibsiz berishga urintirmasdan, ularni izlash strategiyasini ishlab chiqishga o'rgatishdan iboratdir.

“Kungaboqar”: O‘quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar. Bu uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin(5).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta‘lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017
2. Shuhratbek. uz
3. BAXTIYOR. UZ
4. Ziyonet. uz